



KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING INGLIZ TILINI O'QITISHGA ROLI VA AHAMIYATI

Ahmedova Gulmira Oxunjonovna

Toshkent shahar Mirobod tumani

154-sonli umumiy o'rta ta'lism maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

+998919200218 gulmiraahmedova0505@gmail.com

Annotatsiya: Muloqot -tilni o'zlashtirishning asosiy maqsadi bo'lganligi sababli, til o'rganuvchilar uchun kommunikativ kompetensiya muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tilda muloqot qilishni o'rganish bugungi kunda insonlar o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish va tez o'zgarib borayotgan dunyoda ilgarilab borishlari uchun rivojlantirish zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biri bo'lganligi sababli ingliz tili darslarida kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish chet tili o'qituvchilaring asosiy maqsadidir. Ushbu maqolada chet tili darslarida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani oshirishning ahamiyati xususida so'zboradi.

Kalit so'zlar: muloqot, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, nutqiy malakalar, kommunikant, lingvistik diskurs, lingvislik, sotsiolinguistik va pragmatik kompetensiyalar.

O'quvchilar chet tilini o'rganayotganda muloqotda foydalaniladigan belgilar tizimi sifatida tilning tabiatini tushunishdan boshlashlari kerak. Bu suhbat davomida rasmiy tilni bilish (fonetika, lug'at va grammatika), shuningdek, til tizimini bilishni o'rganish kerakligini anglatadi. Natijada, treningda chet tilini o'rganishga kommunikativ va kognitiv yondashuvlar keng tarqalgan. Umuman olganda, kommunikativ yondashuv ingliz tilini aloqa vositasi sifatida tartibli, uslubiy va bog'liq holda o'qitishga qaratilgan o'qitish strategiyasini qo'llashdir.

2012 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qilgan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PK-1875-sonli qarori qabul qilindi. Darhaqiqat, bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlik, malaka va tajribani talab qilmoqda. Qarorga ko'ra, chet tilini barcha umumiy o'rta ta'lism maktabining 1-sinfidan boshlab ommaviy tarzda o'rganish joriy etildi. Chet tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiradi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapishtirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsiyonal tajribasini boyitadi. Muloqotdosh (kommunikant)larning bir-birini tushunishlari chet tilini bilishning asosiy mezoni hisoblanadi. Ta'lism tizimidagi boshqa fanlardan chet tilining farqi bir paytning o'zida uning ham ta'lism maqsadi, ham ta'lism vositasi ekanligida namoyon bo'ladi. Chet tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapishtirish, yozish, o'qish)ni egallash ta'limgandan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish maqomini ham oladi.



O'quvchi faqat muloqotdosh sifatida emas, balki axborot sohibi (kognizant) maqomida o'rganilayotgan tildan foydalanadi. Tilni o'rganish chog'ida o'quvchi lingvistik bilimlar toplash bilan emas, nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyasi)ni oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Kommunikativ faoliyat ko'rsatish shaxsga yo'naltirilgan kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida chet tili o'rgatiladi.

Ingliz tili o'qitishda kommunikativ yondashuv A.N.Xomskiy va D.Xaymslar tomonidan lingvistik diskursga kiritilgan. Kommunikativ kompetensiya atamasi va uning zamirida rivojlantirilgan til kommunikatsiya vositasidir, degan mazmundagi nazariya asosida rivojlantirilgan. Kommunikativ kompetensiya atamasi ikki so'zdan iborat bo'lib, kommunikatsiya – fikr yoki axborot almashish; kompetensiya – biror soha yoki masaladan yaxshi xabardorlik va ushbu sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritilishini ta'minlaydigan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyini anglatadi. Kompetensiya atamasi shaxsni ma'lum sohada faoliyat yurita olishga qodir etuvchi fazilatlari, sifatlari va xos xususiyatlarini anglatadi.

Gapiruvchi (tinglovchi)ning kompetensiyasi uni modellar asosida chegaralanmagan miqdordagi gaplarni tuza (tushuna) olishga, shuningdek tillardagi o'xshashlik va farqlarni hisobga olib, mulohazali hukm chiqara olishga qodir bo'lishi kerak. Shuningdek, competence so'zining “ bellashmoq, raqobatlashmoq, musobaqalashmoq” kabi ma'nolarni ifodalaydigan *compete* o'zagiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ushbu o'zak tushuncha inobatga olinadigan bo'lsa, *competence* so'zining ma'nosi yanada teranlashadi va u ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlovchi zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni ifodalaydi.

Yuqoridagilarga va mutaxassislar tomonidan berilgan turli ta'riflarga asoslanib, Kommunikativ kompetensiya – ma'lum maqsadga erishish uchun samarali muloqot qilish, axborot, fikr, nuqtayi nazar, o'y, xayol va ichki kechinmalarni o'zaro baham ko'rish uchun tildan adekvat foydalana olishda suhbatdosh bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha olishni ta'minlovchi zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyidir, degan ta'rifni shakllantirish mumkin.

Kommunikativ kompetensiya – ingliz tili bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash layoqatidir. Kommunikativ kompetensiya lingvislik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar majmuyidan iborat bo'lib, mazkur kompetensiyalar tarkibiga yana bir qancha kompetensiyalar kiritilgan. Kommunikativ kompetensiyani egallanishi ingliz tili o'qitishning asosiy maqsadi sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda kommunikatsiyani asosiy o'qitish vositasi, kompetensiyani ta'lim maqsadi sifatida tan olinishiga sabab bo'ldi.

Kommunikativ kompetensiya lingvistik nazariyasining o'ziga xosligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Til ma'no ifodalash tizimidir.
2. Tilning bosh funksiyasi interaksiya va kommunikatsiyani vujudga keltirishdir.
3. Til strukturasi uning funksional va kommunikativ foydalanilishini aks ettiradi.
4. Asosiy til birliklari uning grammatick va struktural funksiyasi emas, balki diskursda aniqlanadigan funksional hamda kommunikativ ma'no kategoriyasidir.



Kommunikativ topshiriqlar orqali o'quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va boshqarish an'anaviy o'qitish metodidan farqli ravishda o'quv materiallarining talaffuzini, yangi leksikasini, grammatic materialini, eshitib va o'qib tushunilgan matnlarni, fikrini yozma bayon qilish usullarini muloqot jarayonida kompleks o'zlashtirishni ko'zda tutadi, ya'ni o'quvchi kommmunikativ topshiriqnii bajarishni mashq qilayotgan jarayondayoq undagi leksik birlıklarning talaffuzini, anglatgan ma'nosini, grammatic-sintaktik tuzilishini, jumla tuzilishidagi o'ziga xosliklarni egallab oladi. Topshiriq nutq darajasida o'zlashtirilgandan keyingina uning grafik ifodalanishi tushunishga, o'rganilgan axborot haqida fikrini yozma bayon qilishga va nihoyat undagi fonetik-grammatic qoidalarni o'rganishga kirishadi.

O'quvchilarda kommunikativ kompetesiyanı, ya'ni suhbatga kirishib olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, nutqiy faoliyat usullarini o'rgatuvchi kommunikativ topshiriqlar orqali tashkil qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quvchi tomonidan tayyorlanadi. Muloqot jarayonida kommunikativ topshiriqdagi fonetik, grammatic belgilarni idrok qilish taqlidiy o'zlashtirish yoki yod olish orqali amalga oshiriladi. Taqlidiy o'zlashtirish eshitgan jumla mazmunini audio-vizual vositalar yordamida idrok qilish orqali tashkil qilinadi. Yod olish esa kommunikativ topshiriqnii bajargandan keyin o'zlashtirilgan og'zaki nutq materiali asosida uyushtiriladi. An'anaviy o'qitishda so'zlar ifodalagan ma'noni tushunmasdan yodlash xotirada uzoq saqlanmaslik bilan xarakterlanadi. Eshitib tushunilgan nutq materiali ko'p martalik takror asosida mustahkamlangach, bu o'quvchiga o'z fikrini mazmunli ifodalash usullarini, ma'lum bir nutq vaziyatlarida suhbatdoshiga nimani gapirishni, qanday gapirish usullarini egallahsga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayoni tezlashgan sari metodologik o'rganish o'zbek va xorijiy tillarni bilish zamon talabiga aylanib bormoqda. Bugun, ingliz tilini bilish har qanday sohada yaxshi mutaxassis bo'lish uchun oddiy talabga aylandi. Maktablarda chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rganishda kommunikativ kompetensiyanı tadbiq etish juda muhim omillardan biri hisoblanadi. Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchining qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanish, muloqot qilish, o'z fikrini bayon etish xususiyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Canale, Michael. "From communicative competence to communicative language Pedagogy." Language and communication 1.1 (1983): 1-47
2. I.Karimov., PQ-1875-son. 2012 yill0 dekabr, Toshkent sh.
3. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi.-T. 1996
4. Mirolyubov A.A.,Raxmanov I.V.,Setlin V.S. Taxriri ostida. O'rta mакtabda chet tillar o'qitishning umumiyl metodikasi.-T O'qituvchi 1974
5. Oxford L.L. Language learning strategies: What Every Teacher should know. – N.Y. New Bury House Publishers 1990